

INTONATSIYA - FONETIK SUPERSEGMENT VOSITASI SIFATIDA

Haydarov Anvar Askarovich
filologiya fanlari nomzodi, professor
a.a.haydarov@buxdu.uz

Mansurova Dilnoza Utkir qizi
Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti
d.u.mansurova@buxdu.uz

Annotatsiya: *Ma'lumki, fonostilistika tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida fonetika va stilistika fanlari orasida paydo bo'lgan yangi yo'nalishdir. Fonostilistikada nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari, shuningdek, supersegment fonetik vositalar: intonatsiya, pauza va urg'uning konnotativ ma'no ifodalashi o'rganiladi. Intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolari va emotsional – ekspressiv bo'yoqlarini ifoda qilish uchun xizmat qiluvchi ritmik – melodik tomoni, ovoznining baland – pastligini ifodalovchi supersegment elementdir*

Kalit so'zlar: *Fonostilistika, intonatsiya, pauza, urg'u, ritmik – melodik, nutq tempi, nutq tembri, logik urg'u, emfatik urg'u, emotsional – ekspressivlik.*

Аннотация: *Известно, что фоностилистика – это новое направление, возникшее между науками фонетикой и стилистикой в дальнейшем развитии языкознания. Стилистические особенности звуков речи в фоностилистике. Также изучаются надсегментные фонетические средства: интонация, пауза, ударение, которые выражают коннотативное значение. Интонация — надсегментный элемент, служащий для выражения синтаксических значений и эмоционально-экспрессивной окраски речи, рифмо-мелодической стороны, высокого-низкого голоса.*

Ключевые слова: *фоностилистика, интонация, пауза, ударение, ритмико-мелодический, темп речи, тембр речи, логический акцент, эморатический акцент, эмоционально-экспрессивность.*

Annotation: *It is known that phonostylistics is a new direction that emerged between the sciences of phonetics and stylistics in the further development of linguistics. Stylistic features of speech sounds in phonostylistics. Also, supersegmental phonetic means: intonation, pause, and stress, which express connotative meaning, are studied. Intonation is a supersegmental element that serves to express the syntactic meanings and emotional-expressive colors of speech, the rhythmic-melodic side, and the high-low voice*

Key words: *phonostylistics, intonation, pause, stress, rhythmic-melodic, tempo of speech, timbre of speech, logical accent, emfatik accent, emotional - expressiveness.*

Og'zaki nutqqa xos bo'lgan supersegment vositalardan biri intonatsiyadir. Intonatsiya nutq bo'laklarining sintaktik ma'nosi va so'zlovchining hissiyotini aks ettiradi. Hissiy bo'yoq nutqda ovoznining baland yoki pastligi, ya'ni ohang orqali hosil bo'ladi. Ohangda so'zlovchining modal – emotsional munosabati uning nutqiy talaffuzida seziladi. Turli ohangda aytilgan har bir fraza boshqa – boshqa emotsiya hosil qiladi. Shu bilan birga so'zlovchining u yoki bu obyektga bo'lgan turli xil munosabatini ham ifodalaydi. [1, 69-72]

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Fikrni bayon etishda intonatsiya asosiy rolni bajaradi, bunda eng kichik birlik bo'lib sintagma xizmat qiladi. Sintagma vazifasiga ko'ra sintaktik birlik, formasiga ko'ra fonetikdir. Ko'tariluvchi intonatsiyada notiqning tasirchanlik hissiyoti, ya'ni hayratlanishi, g'azablanishini ifodalaydi.

Pasayuvchi intonatsiyada esa ovoz eng pastga tushib, e'tiborsizlik, sovuqqonlik, befarqlik kabi hissiyotlar ifodalanadi.

Ma'lum bo'ladiki nutqda intonatsiyaning o'zgarishi so'zlovchining har xil tuyg'ularini aks ettiruvchi muhim fonostilistik vositasidir.

Fonostilistik vositalardan xabardor bo'lmay turib, adabiy tilning leksik va grammatik qoidalarini muvaffaqiyatli egallab bo'lmaydi. Ayniqsa fonostilistikaning sillabika va intonatsiya bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari badiiy nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy nutqni intonatsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun intonatsiya va uning emotsional xususiyatlarini yanada chuqurroq va monografik tarzda o'rganish tilshunoslar oldida turgan navbatdagi dolzarb masalalardan biridir. [2,24-28]

She'riy asarlar vazn, qofiya va intonatsiya vositasida shakllanadi. Shuning uchun ham buyuk so'z san'atkorlari nutqning sintaktik ma'nosi va emotsional – ekspressiv bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik – melodik vositalardan unumli foydalanib, asarlar yaratganlar.[3,45]

Intonatsiya murakkab bir til nutq hodisasi bo'lib, u o'z ichiga melodika, pauza, ayrim so'zlarni kuchli aytish (urg'u, logik urg'u, nutq tempi, tembrini qamrab olganligi) sababli, u 2 vazifani bajaradi:

a) Noemotsional gaplardan emotsional gap hosil qiladi, chunki undov intonatsiyasi bilan aytilgan har qanday gap emotsional gapga aylanadi;

b) So'zlovchining his tuyg'usini ifodalaydi.

So'zlashuv nutq uslubida intonatsiyaning uch tipi uchraydi.

1)Grammatik – sintagmatik.

2)Logik yoki logik – ekspressiv.

3)Emotsional – ekspressiv.

So'zlashuv nutqida grammatik – sintagmatik intonatsiya ma'lum bir sintaktik bo'linish va erkin so'z tartibi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Masalan: Karim is coming to us.

Ushbu gapda so'zlar tartibi oddiy bo'lib, intonatsiya o'z maromida.

Coming boy is Karim gapida esa sifat-dosh I dan ifodalangan **coming** so'zi gapning boshiga chiqib gapda so'z tartibini o'zgartirgan. Bunda eganing o'rni o'zgarib, so'zlovchida qandaydir ruhiy o'zgarish ko'rinadi, ya'ni kelayotgan bola Karimdir tarzida beriladi. Intonatsiya biroz hayajonli bo'lib, ega bo'lakning o'zida ham turli ma'no ottenkalarini belgilash mumkin.

Xuddi shunday misolni o'zbek tilida ham ta'riflash mumkin:

Ismoil bu yoqqa kelyapti.

Gapda so'z tartibi normal oddiy intonatsiya bilan aytilyapti va o'z maromida.

Ammo Bu yoqqa kelyapti Ismoil!

gapida esa eganing tartibi o'zgaragan, so'zlovchida ham ruhiy o'zgarish ko'rinadi, ya'ni bu yoqqa kelyapti Ismoil, endi nima qilamiz mazmuni ham ifodalangan.

Gap bo'laklari qismlari tushirilib, hayajonli intonatsiya bilan aytilgan gap esa bo'lakning o'zida ham turli ma'no ottenkalari berilishi mumkin.

Xulosa qilganda, intonatsiya nutq jarayonida muhim fonostilistik vazifa bajaruvchi hodisadir. Ingliz va o'zbek tillarida intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ilmiy uslubdan tashqari

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

qolgan barcha uslublarda intonatsiyaning konnotativ (qo'shimcha) ma'no ifodalash darajasi kuchlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Haydarov A. "Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari" BuxDu Ilmiy axbarot. 2006. N1 – B. 69 -72.
1. 2.Abduazizov A.A Fonostilistik vositalarning o'rganilishiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti – T.1985.N2. – B. 24-28
2. Hojiyev A. "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" – T.: 1985. – B.45
3. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin, 7, 63–65. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>
4. Khamidovna, N. N. (2022). THE DENOTATION AND CONNOTATION OF A WORD. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 382-388. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1242>
5. Navruzova, N. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 24(24). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8251
6. Tursunov, M. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НУРБОЛЕ В РАЗНЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ЖАНРАХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7959
7. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 46–49. <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
8. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). SEMANTIC PROPERTIES OF ANTHROPONYMS. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626> <https://ijins.umsida.ac.id/index.php/ijins/article/view/626>
9. Haydarov Anvar Askarovich. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. International Engineering Journal For Research & Development, 6(TITFL), 91–94. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/3Q7SB>
10. Haydarov, A. A., & Mansurova, D. (2023). THE ROLE OF INTONATION IN SPEECH AND ARTISTIC SPEECH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 673-676. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/343>
11. Musinovna, R. M. (2022). Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 30–33. Retrieved from http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35_13
12. Tursunov Mirzo Makhmudovich, & Akhmedova Gulmira Okhunjonovna. (2022). Analysis of Conceptual Metaphors Used in British Politicians' Speeches. Eurasian Research Bulletin, 7, 43–48. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1015>
13. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION
STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES
